

TURIZM TURLARINING KLASSIFIKATSIYALARI.

Hamrayeva Dilbar Xamza qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasini tizimlashtirishning asosiy mezonlari va turizm turlarining klassifikatsiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida turizmning hududiy, maqsadli, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy belgilariga ko‘ra tasniflanishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy turizm bozorida paydo bo‘layotgan yangi yo‘nalishlar (ekoturizm, ziyorat turizmi, gastro-turizm) va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni yoritilgan. Maqola turizm sohasidagi mutaxassislar va talabalar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: turizm, turizm klassifikatsiyasi, turizmni tashkil etish mezonlari, zamonaviy turizm.

CLASSIFICATIONS OF TOURISM TYPES.

Hamrayeva Dilbar Hamza qizi

Student of Termez State Pedagogical Institute

Annotation: This article analyzes the main criteria for systematizing the tourism industry and the classifications of tourism types. The study examines the classification of tourism according to territorial, target, organizational and socio-economic characteristics. Also, new directions emerging in the modern tourism market (ecotourism, pilgrimage tourism, gastro-tourism) and their role in the economy are highlighted. The article serves as a theoretical source for specialists and students in the field of tourism.


Keywords: tourism, tourism classification, criteria for organizing tourism, modern tourism.

Turizm bugun nafaqat dam olish va sayohat vositasi, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmoqlaridan biriga aylangan. Sayohat faqatgina bir joydan ikkinchi joyga harakatlanish emas, balki

o'z ichki olamingizda yangi qirralarni kashf etish jarayonidir. Bu soha har yili millionlab odamlarga ish o'rni yaratadi, madaniy almashinuvni rag'batlantiradi va hamkorlikni mustahkamlaydi. Biroq, turizm sohasi juda keng va xilma-xil bo'lgani uchun turizm bozori kengayishi va sayyohlarning diversifikatsiyalashuvi ushbu sohani ilmiy asosda tizimlashtirish va uni bir necha asosiy mezonlarga ko'ra guruhlashtirish, klassifikatsiya qilish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bu tasniflar sohani o'rganish va tahlil qilishda, eng avvalo turizmning asl mohiyatini ochib beradigan belgilarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Turizm turlarini aniq tasniflash, soha iqtisodiyotini rejalashtirish, turistik mahsulotlarni maqsadli guruhlarga yo'naltirish va infratuzilmani to'g'ri shakllantirish uchun poydevor vazifasini o'tamoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillari davrida an'anaviy turizm turlari yoniga ekologik, agrosanoat va intellektual turizm kabi yangi yo'nalishlarning qo'shilishi ushbu mavzuni o'rganishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Turizmni klassifikatsiyalash-bu sayyohlarning ehtiyojlari, sayohat xususiyatlari va ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasiga qarab ularni muayyan guruhlarga ajratish jarayonidir. Turizm sohasi- ko'p qirrali hodisa bo'lib, xalqaro amaliyotda turizm asosan quyidagi mezon asosida tasniflanadi.

Sayyohning marshrutlarga chiqishidan maqsadi va istagi har xil bo'lishi mumkin va sayohat paytida bir vaqtning o'zida ko'pgina maqsadlarni amalga oshirishi mumkin. Turizm turlarining tasniflanishi va rivojlanish qonuniyatlari uzoq yillardan beri ham jahon, ham mahalliy olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ko'plab tadqiqotlarda globalizatsiya va raqamli iqtisodiyot sharoitida turizmning yangi shakllari (masalan, "Smart-turizm", "Volontyorlik turizmi") paydo bo'lishi ushbu klassifikatsiyalarni doimiy ravishda yangilab borishni talab etishi shubhasiz. Turizmning kelajagi uning turlarini aniq tasniflash va ularni rivojlantirishga bog'liq. Bu borada qilgan har bir qadam nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki madaniyatlararo aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Smart-turizm-Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan sayohat hisoblanadi.

Volontyorlik turizmi- (yoki “volontyorlik sayohati”) -bu sayohat davomida o'z vaqtini, kuchini va ko'nikmalarini haq evaziga emas, balki ijtimoiy foyda keltiradigan loyihalarga sarflab, shu bilan birga yangi joylarni o'rganish va madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradigan sayohat turi. Bunday sayohatlarda odamlar ta'lim, atrof-muhitni muhofaza qilish, yordamga muhtojlarga ko'maklashish kabi sohalarda ko'ngilli bo'lib qatnashadi, bu esa sayohatga chuqurroq ma'no bag'ishlaydi.

Ekzotik turizm-bu turizm turi ekzotik mamlakatlarga Antarktida va Arktikaga, kosmodromlarda kosmosga qiladigan sayohatlar, dengiz va okeanlar suv ostiga g'ayrioddiy transport vositasida sayr qilish va hokazolar kiradi. Bunday turlar turistlar tomonidan juda katta xarajatlar qilishni talab qiladi.

Turizm turlarining klassifikatsiyasini o'rganish natijasida: Turizmning ko'pqirraliligi, turizm shunchaki sayohat emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va klassifikatsiya qilish orqali bozor holatini aniqroq tushunish va har bir qismi uchun alohida strategiya ishlab chiqish imkoniyati tug'iladi.

Klassifikatsiyaning dinamikligi: An'anaviy klassifikatsiya mezonlari (hududiy, maqsadli, tashkiliy) o'zgaras bo'lsa-da, turizm turlarining tarkibi texnologik, ekologik, siyosiy, ijtimoiy demografik, iqtisodiy omillar ta'sirida doimiy ravishda kengayib bormoqda.

O'zbekiston salohiyati: Mamlakatimizda turizmni klassifikatsiyalashda ziyorat turizmi va madaniy-ma'rifiy turizm ustuvorlik kasb etadi. Biroq, agroturizm va ekoturizm kabi yo'nalishlar hali to'liq ishga solinmagan katta zaxiraga ega.

Turizmning aktiv va passiv turlarga bo'linishining asosiy mazmuni, odamlarning turizm jarayonida harakatlanishi va mijozlarning turlarini aniqlash bilan belgilanadi. Turizmning passiv turiga turistik sayohatning tinchroq va kam kuch sarf qilinadigan, jismoniy zo'riqishga xos bo'lmagan turi kiradi. Bu tur bir maromda dam olishga moslashgan shaxslarga mo'ljallangan, tanishish turizmi bo'lib, davolovchi xarakterdagi sog'lomlashtiruvchi xususiyatlardan iborat, ya'ni turli sanatoriy va kurortlarni shular qatoriga kiritish mumkin.

Katta jismoniy kuch talab qilinadigan va hamma turistlar qatlamiga ham to'g'ri keladigan turizmning aktiv turlariga dam olish va sayohat, vaqti chog'lik, sport kabilar kiradi. Aktiv turizmga har xil sarguzashtli sayohatlarni ham kiritish mumkin.

Ushbu tasnifning ahamiyati shundaki, u sayyohlarga o'z ehtiyojlariga mos yo'nalishni tanlash imkoniyatini beradi, tashkilotchilar va mintaqa boshqaruvchilarga esa bozor talabini tahlil qilish, sifatli va xilma-xil xizmat ko'rsatish asosini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, turizmning har bir turi sayyoh va jamiyat o'rtasidagi o'ziga xos aloqani ifodalaydi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va madaniyatlararo

almashinuvga xizmat qiladi. Ushbu tizimli yondashuv nafaqat turizmni tushunish, balki uni barqaror va maqsadli rivojlantirish uchun asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Usmonov M.R “Turizm geografiyasi”. Samarqand-2020. 281 b.
2. Usmonov M.R, Jumaboev T.J, Sherxolov.O “Turizm geografiyasi” (uslubiy qo‘llanma). Samarqand-2012. 71 b.
3. Mamatqulov X.M, Bektemirov A.B, Tuxliyev I.S, Norchayev, A.N “Xalqaro turizm”. Toshkent-2009. 192 b.
4. Tuxliyev I.S, Hayitbayev. R, Safarov B.Sh, Tursunova G.R. “Turizm asoslari”. Toshkent-2014. 332 b.
5. Abdimo‘minov T.A., & Xoliyorov H.O. (2024). Vaxshivor hududida turizmni rivojlantirish masalalari. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 12-14.
6. Abdimo‘minov, T. A., & Xoliqov, X. I. (2024). O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 6-11.
7. Abdimo‘minov T.A., Toshpo‘latov Sh.M., & Cho‘Liboyev I.I. (2022). Tarixiy va madaniy obyektlarning turistik imkoniyatlari (Jarqo‘rg‘on minorasi misolida). *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 14-18.